

Iqtidorli olim

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti Mikroorganizmlar biotexnologiyasi laboratoriyasimudiri b.f.n., yozuvchi Baxtiyor Rasulovning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” romani nashr etildi.

Mazkur asar mo‘g‘ullarning Xorazmshohlar saltanatiga bosqini davridan sulton Jaloliddinning shimoliy Hindiston zaminida davlat tuzishigacha bo‘lgan davr voqealarini hikoya qiladi. Asarda sulton Jaloliddin Manguberdining biz bilmagan qiyofa-qirralari ochiladi. Buyuk ajdodimiz biz tarix kitoblarida o‘qiganimizdek nafaqat mohir sarkarda, balki din va millat himoyachisi, yurt jonkuyari hamdir.

Baxtiyor Rasulov (Baxtiyor Abdug‘afur) 1980-yili Namangan viloyatining Uychi tumani Yorqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Ayni paytda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti mikroorganizmlar biotexnologiyasi laboratoriyasi mudiri vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda.



B.Rasulov juda ko‘plab ilmiy ishlar, tadqiqotlar va 1 ta patent muallifi, xalqaro loyihalar faol qatnashchisi. Uning 100 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar e‘lon qilingan.